

MAKTABLARDA ODIL YOQUBOV IJODINI O'RGATISH

Jahongir KOMILJONOV

Namangan davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi,

KIUT, Xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Odil Yoqubovning boy ijodiy merosini umumta'lim maktablarida o'rgatishning ahamiyati va usullari haqida so'z yuritiladi. Unda yozuvchining asarlarida aks etgan insonparvarlik, vatanparvarlik, adolatparastlik kabi g'oyalarni o'quvchilarga yetkazish, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, adabiy tahlil, muhokama va dramatik sahnalashtirish usullari orqali o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, Odil Yoqubov asarlarining bugungi kun yoshlari tarbiyasida tutgan o'rni tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Odil Yoqubov, maktab adabiyoti, adabiy tarbiya, vatanparvarlik, interfaol metodlar, asar tahlili, dramatisatsiya, o'quvchilar faoliyati, o'zbek adabiyoti, dars ishlanmasi.*

Kirish

Yoshlarni Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ajdodlarimiz yaratgan ulkan ma'naviy boylikka sadoqat ruhida tarbiyalash; el-yurt manfaatlari yo'lida yashab, mehnat qiladigan yurtsevar, millatparvar, fidoyi yoshlarni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Adabiy ta'lim jarayonida Odil Yoqubov ijodini samarali ta'lim usullariga tayanib o'rgatish vositasida o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish ham dolzarb masalalardan biridir. O'quvchi yoshlar qalbida yuksak insoniy tuyg'ular chuqur ildiz otishi jamiyat ma'naviy hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, ma'naviyatning qudratli kuchga aylanishi tezlashadi.

Adabiyotlar tahlili

Professor Q.Yo'ldoshev «Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari» qo'llanmasida: «...adabiyot darsliklarida hamisha yozuvchilarning tarjimai

hollariga oid ma'lumotlar beriladi. Bu ma'lumotlar, ko'pincha, bir necha sinflarda takror-takror keltiriladi va bir-biridan jiddiy farq qilmaydi. Yuqori sinflarda esa tarjimai holga juda katta o'rin ajratilib, adibning hayot va ijod yo'liga ancha batafsil to'xtalinadi. Shu vaqtga qadar amalda bo'lib kelgan darsliklardagi bu xil ma'lumotlarda asosiy e'tibor adibning individual qiyofasini, inson sifatidagi o'ziga xosligini, ijodkor sifatidagi ruhiyatini ochishga emas, balki ayni shu jihatlarni ko'rsatmaslikka xizmat qilar edi. Shuning uchun ham o'quvchilarimiz adiblarni faqat ismi sharifi va yozgan asarlaridangina farqlay olishardi, xolos. Uyg'un, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor singari ijodkorlarning hayot yo'llari bir-biriga juda o'xshash tarzda talqin etilar edi»¹, – deb yozib, diqqatimizni muayyan adib hayoti va ijodini o'rgatishdagi asosiy nuqsonga qaratgan. Olim ta'kidlaganiday, har bir so'z san'atkorining o'ziga xos ijodiy qiyofasini uslubi va badiiy olamiga xos betakrorlik alomatlarini o'quvchiga tushuntirishda ular yaratgan asarlari tahlilidan foydalanish lozimki, professor B.To'xliyev «Adabiyot o'qitish metodikasi» darsligida ana shu masalaga diqqatni qaratgan².

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada Odil Yoqubovning tarjimai holi, ijodi va shaxsiyatiga oid xos xususiyatlar ilmiy- nazariy tahlil asosida o'rganiladi. Yozuvchining hayoti, ijodiy faoliyati va jamiyatda tutgan o'rnini tadqiq etishda biografik tahlil, tahliliy-taqqoslash va kontekstual yondashuv kabi usullardan foydalanildi. Xususan, biografik tahlil orqali uning hayot yo'li, ijodiy shakllanish bosqichlari va shaxsiy tajribalari o'rganildi. Tahliliy-taqqoslash metodi yordamida Odil Yoqubovning faoliyati boshqa o'zbek yozuvchilari bilan solishtirilib, umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Kontekstual yondashuv esa yozuvchining hayoti va asarlarini muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoiti bilan bog'liq holda tahlil qilish imkonini berdi. Shuningdek, pedagogik tahlil orqali yozuvchi shaxsiyatini ta'lim-tarbiya jarayonida namunaviy obraz sifatida qo'llash imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Olib borilgan tahlillar natijasida Odil Yoqubovning shaxsiy fazilatlari va ijodiy

¹ Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари.-Т.: Ўқитувчи. 1996. 63-б.

² Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси.-Т.: Янги аср авлоди. 2006. 113-б.

merosi faqat adabiy emas, balki ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy jihatdan ham o'quvchi shaxsiyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekani asoslab berildi.

Tahlillar va natijalar

Milliy ta'lim tizimining turli bosqichlarida Odil Yoqubov ijodidan namunalarni o'rganish asosan mustaqillikdan keyingi yillarda yo'lga qo'yildi. O'zbek xalqiga o'zligini tanitish, uni nozik tuyg'ular, yuksak ma'naviy sifatlarning go'zal va ta'sirchan ifodasi bilan yaqinlashtirishga intilgan ulkan ijodkorning asarlarini millat yoshlariga o'rgatish g'oyat muhim pedagogik vazifadir. Chunki Odil Yoqubovning bitganlari millat ruhini aks ettirganligi, ta'sirchan va ko'ngillardan chuqur joy olishi bilan turli yoshdagi o'quvchilarda eng yuksak ezgu ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga qodir asarlardir. Shuning uchun ham mustaqillikka erishilgandan keyin majburiy ta'limning barcha bosqichlari uchun tuzilgan "Adabiyot" o'quv dasturlarida adibning asarlarini o'rgatish ko'zda tutilgan.

Odil Yoqubov asarlari kichik o'quvchilardan tortib, o'rta maktabda saboq olayotgan o'smir va o'spirinlar hamda lisey va kasb-hunar maktablarida tahsil ko'rayotgan balog'atga yetgan yoshlarga ham tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, ularda ezgu axloqiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatiga egadir. Faqat adib asarlaridan har bir bosqichdagi o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga muvofiq keladiganlarini tanlash hamda ularni muayyan bosqichdagi o'quvchilarning intellektual va ruhiy imkoniyatlariga eng mos usullarda o'qita bilish kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining amaldagi "Adabiyot" dasturida Odil Yoqubov ijodi 6- va 9- sinflarda o'rganilishi ko'zda tutilgan. Ma'lumki, adabiy ta'limning bu bosqichida adabiyot, garchi alohida mustaqil o'quv fani sifatida o'rgatilsa-da, lekin adabiy hodisalarga tizimli kurs sifatida emas, balki adabiy o'qish tarzida qarash ustuvorlik qiladi. "Adabiyot" fanini o'qitishdan maqsad o'quvchilarda adabiyotshunoslik faniga xos tushunchalarni qaror topdirish emas, balki ularni yaxshi badiiy asarlarni o'qiydigan didli kitobxon va ezgu ma'naviyatli shaxs sifatida shakllantirishdan iboratdir.

Shunisi diqqatga sazovorki, bugungi kunda o'quvchilarni ulkan adib ijodi namunalari bilan tanishtirish 6-sinfdan e'tiboran ko'zda tutilgan. Amalda bo'lgan

“Adabiyot” o‘quv dasturiga ko‘ra umumta’lim maktablarining 6- sinfida Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasini ikki soat mobaynida o‘rganish ko‘zda tutilgan. Adibning xalqimiz milliy ruhiyatida o‘z-o‘zini anglab yetishga intilish tuyg‘usini uyg‘otgan bu hikoyani o‘rgatishda samaraga erishish uchun ushbu asarning darslikning qaysi ruknidan joy olganligiga alohida e’tibor qilish lozim. Zero, 5-, 6- va 7- sinflarda “Adabiyot” darsliklaridagi materiallar muayyan ruknlar asosida joylashtirilgandir. Bu materiallarni o‘rgatishda ular qaysi ruknlarda berilayotgani hisobga olinib, ish yuritilgandagina kutilgan didaktik samaraga erishish mumkin bo‘ladi. Negaki, bu sinflarning “Adabiyot” dasturida o‘rganilishi ko‘zda tutilgan adabiy materiallar o‘quvchilarda shakllantirilishi mo‘ljallangan muayyan axloqiy sifatlarga muvofiq tarzda tanlangan va o‘rinlashtirilgan. Binobarin, asarning dasturiy talqinida ham ayni jihat aks etgan bo‘lishi zarur.

“Yaxshilik” hikoyasi 6-sinf dasturidagi 1-fasl “Har bir kun - saboq”, ruknidan o‘rin olgan. Asarga *“Biz o‘qiydigan “Yaxshilik” hikoyasi ikkinchi jahon urushi paytidagi xalqimiz hayoti haqida hikoya qiladi.*

XX asrning 40-yillarida dunyoning ko‘p davlatlari, shu jumladan, O‘zbekiston ham katta urush domiga tortilgan. O‘zbekiston hududida bevosita urush harakatlari olib borilmagan bo‘lsa-da, ko‘pchilik erkaklar, yigitlar qo‘llariga qurol olib jangga ketishdi. Shahar va qishloqlarda asosan ayollar, bolalar va qariyalar qolishdi. Ular urushga ketgan erkaklarning o‘rniga ham ishlar va yaqinlarining omonligidan darak beruvchi maktublarni intizorlik bilan kutar edilar” tarzida talqin berilgan³. Demakki, darslik tuzuvchilari asar matnini taqdim etish va uning tahlili yuzasidan savol-topshiriqlar berishda, adabiyot o‘qituvchilari esa mazkur hikoyanini o‘tishda mana shu dasturiy talqinga amal qilishlari kerak.

Bu sinfda Odil Yoqubovning eng dastlabki asarlaridan bir “Yaxshilik” hikoyasini o‘rganish rejalashtirilgan⁴. Ammo dasturda bu asarni qanday talqin qilish yo‘li ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, darslikda asarni tahlil qilish yuzasidan savol-topshiriq berilgan. Kichik maktab yoshidagi bolaning ruhiy holati aks ettirilgan bu

³ Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili (5-9 sinflar). –Yangiyo‘l: “Yangiyo‘l poligraf service”, 2010. 62- bet.

⁴ G‘afforova T., Shodmonov E., Eshturdiyeva G. O‘qish kitobi (1- sinf uchun darslik). –T.: “Sharq”, 2009.

asar vositasida o'quvchilarni o'tgan asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-psixologik vaziyat, urush talofatlari, kishilarning urushga borishi va front ortidagi hayot haqida o'ylashga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etgan bo'lardi. Ayni vaqtda hikoyada tog'a, kelinoyi, jiyan va buvi obrazlari o'rtasidagi mushtaraklikni qidirish, yaxshilik qilishga intilgan bolaning ko'ngil kechinmalari to'g'risida o'ylab ko'rish, tabiat hodisalaridagi o'zgarishning omillari xususida fikrlashga undash, demakki, o'quvchilarni intellektual rivojlantirish imkoniyati mavjud edi. Ammo 6-sinf uchun tuzilgan mazkur darslik muallifi bola yosh xususiyatlarini hisobga olishmagan, negaki asarda yangi hayot olstonasidagi yosh kelin va kuyovning kechinmalari bo'rttirib ko'rsatilgan. Shuning uchun 6-sinf o'quvchisiga bu kechinmalar tushunarsiz, demak hikoyadan ko'zlangan maqsadga erishish qiyin. Afsuski, darslik mualliflari bu imkoniyatdan foydalanishmagan. Darslikda o'quvchilarga mustaqil o'qish uchun berilgan "Muzqaymoq" hikoyasi uchun hech qanday kalit so'z yoki topshiriklar berilgan emas.

Ma'lumki, sho'ro adabiy ta'limida o'quvchilar tomonidan o'rganilishi ko'zda tutilgan barcha asarlarga mafkuraviy-g'oyaviy nuqtai nazardan yondashilgan. 5-9 sinflarda o'zbek adabiyoti namoyondalari sifatida Oybek, Abdula Qahhor, Hamid Olimjon, Zulfiya, Mirtemir kabi so'z san'atkorlarining hayotiga oid biografik ma'lumotlarni batafsil o'rgatish va ayrim ijod namunalariga o'quvchilar diqqatini qaratish uchun o'quv dasturida 12-14 soat vaqt ajratilgan. Dasturning uqtirish xatida: "IV-VII sinflarda olib boriladigan adabiyot mashg'ulotlarida o'quvchilar g'oyaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanishlari va sovet kishilariga xos eng yaxshi fazilatlar haqida dastlabki tasavvurga ega bo'lishlari" ta'kidlangan.

XX asrning 60-80 yillarigacha yaratilgan metodik qo'llanmalarda ham IV-VII sinflar adib hayoti va ijodini adabiy tarixiy kurs sifatida o'rgatish uchun tayyorlash bosqichini tashkil etishi uqtirilgan. Badiiy asarlarning g'oyaviy-mazmunini o'rgatish bosh maqsad qilib belgilangan. G'oyaviylik tamoyiliga ko'ra qaysi lirik qahramon yoki badiiy obraz g'oyaviy-mafkuraviy qoliplarga moslab yaratilgan bo'lsa, ijobiy qahramon sifatida talqin qilingan. Bu qahramonga sinfiy xarakteristika berish asar tahlilidan ko'zlangan bosh muddao bo'lgan.

Bugungi adabiy ta'lim insonning o'ta murakkab mavjudot ekanligi, u oldindan tayyorlangan ijtimoiy-siyosiy, estetik-mafkuraviy qoliplarga sig'maydigan darajada yuksak xususiyatlarga egaligini hisobga olib ish ko'rishni taqozo etadi. "O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi"da ta'kidlanganiday, endi avvalgiday badiiy asar haqida darsliklarda birovlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohaza va hukm-xulosalarga qo'shilib qo'yaqolish yetarli bo'lmaydi. O'quvchiga ijodkor yaratgan biror asar uning hayotidagi muayyan holat yoki kayfiyat ifodasi ekanini anglatish orqali unga ijodkor qalbini, shaxsini tushunish, his qildirish zamonaviy adabiy ta'lim oldidagi asosiy vazifaga aylandi.

Endi adabiy ta'lim jarayonida o'rganiladigan badiiy asarga o'qituvchilarning munosabat yo'sini ham oldingidan jiddiy farq qilishi lozim. Bunga erishish uchun o'qituvchi kadrlarni tayyorlashga yangicha yondashuvdan tashqari, adabiyot bo'yicha yaratilayotgan dastur va darsliklar, o'quv hamda metodik qo'llanmalar oldingi nosog'lom qarashlardan xoli hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va faolligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Afsuski, adabiyot o'quv fani yuzasidan hozir yaratilayotgan ba'zi o'quv vositalarida oldin mavjud bo'lgan nuqsonlarga hamon yo'l qo'yilayotganini ko'rish mumkin.

2006 yilda Q. Yo'ldoshev, V. Qodirov hamda J. Yo'ldoshbekovlar muallifdoshligida yaratilgan "Adabiy saboqlar 9" metodik qo'llanmasida bu muhim metodik masalaga oydinlik kiritilgan: ***"O'qituvchi to'qqizinchi sinf adabiy ta'limi yo'nalishini belgilashda yana bir jihatga alohida e'tibor qaratishi kerak bo'ladi. Ma'lumki, 5-8-sinflardagi adabiyot darslarida yozuvchi tarjimai holini o'rgatishga alohida vaqt ajratilmaydi. O'quvchilar uchun ijodkor to'g'risida u sinflarda o'zlashtirilgan bilimlar qo'shimcha ma'lumot maqomida bo'lgan. Bu sinflarda adabiy ta'lim to'lig'icha adabiy o'qish tarzida yo'lga qo'yilgani uchun ham yozuvchi bilan uning o'rganilayotgan asari orasidagi bog'liqlik sezilarli bo'lmas edi. To'qqizinchi sinfdan boshlab, esa adabiyot o'qitish tizimli kursga bir qadar yaqinlashadi, o'quvchilar ham yosh jihatidan ijodkor shaxsiyati, uning bosib o'tgan hayot yo'li bilan muayyan asari o'rtasidagi aloqa borligini payqay oladigan darajaga ko'tariladi. Shuning uchun ham 9- sinfdan boshlab, yozuvchi-***

*adib larning tarjimai holini o'rgatishga alohida vaqt mobaynida to'xtalish maqsadga muvofiq sanaladi"*⁵.

Qizig'i shundaki, oltinchi sinfda "Yaxshilik" hikoyasini o'tishning didaktik yo'llari ko'rsatib berilishi kerak bo'lgan o'rinda qisqa ma'lumot bilan kifoyalanadilar. Adib hayot va ijod yo'liga doir ko'plab ma'lumotlar hamda uning romanlari va boshqa hikoyalari haqida batafsil to'xtalinganda yaxshi bo'lardi. Ayniqsa, asarda chimildiq bilan bog'liq qahramon qarashlarini boricha berishning o'ziyoq bu asar o'quvchi yoshiga, ruhiyatiga mos emas degan qat'iy qarorga kelishga asos bo'la oladi.

Ko'rinadiki, umumta'lim maktablarining 6- sinfida Odil Yoqubov ijodini o'rgatish metodikasini yaratish borasida jiddiy oqsoqlik mavjud. Ta'kidlash joizki, qahramon adibning asarlarini o'rgatish metodikasi umumta'lim maktablarining 9- sinfida ham ko'ngildagidek ishlanmagan. Bu jihatdan, ayniqsa, o'quv dasturidagi talqin yo'sinida kamchilik borligi, dastur bilan darslikning bir-biriga to'la muvofiq kelmasligi, buning ustiga, o'quvchilarga o'rganish uchun taqdim etilayotgan badiiy matnlar hajmi bilan ularni o'zlashtirishga ajratilgan vaqt miqdorining mutanosib emasligi kabi nuqsonlar Odil Yoqubov asarlarini o'rgatish samaradorligini oshirishga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Umumta'lim maktablari uchun yaratilgan "Adabiyot" dasturida Odil Yoqubov ijodini 9- sinfda o'rgatishga besh soat vaqt ajratilgan hamda o'rgatilishi ko'zda tutilgan asarlarning dasturiy talqini berilgan. 9-sinfda adibning hayoti va ijodi, mashhur "Ulug'bek xazinasi" romanidan parchani o'qib o'rgatish mo'ljallanib, "Adabiyot"da romanning Mirzo Ulug'bekka Abdulatifning xiyonati voqealari bilan boshlanuvchi qismi keltirilgan⁶. Asar darslikning ichida uchta voqelikka ajratilgan bo'lib, har bir qismdan so'ng alohida savol javoblarga ajratilgan. Darslikdagi birinchi savol "Shahzoda Abdulla va Abu Said Mirzolarining ko'zlaridagi taraddud, harakatlaridagi toqatsizlik nimadan darak deb o'ylaysiz?" shaklida bo'lib, u o'quvchilarni asarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Matn tahlili

⁵ Yo'ldoshev Q., Q. Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiy saboqlar 9 (9- sinf "Adabiyot" darsligi uchun metodik qo'llanma). –T.: "Yangiyo'l Poligraph service", 2006. 4- bet.

⁶ Йўлдошев Қ., Қодиоров В., Йўлдошбеков Ж., Адабиёт(9-синф учун дарслик) –Т.: "Ўзбекистон", 2019.

yuzasidan darslikda “*Ulug‘bekning Abdulatif bilan yuzma-yuz kelishiga intilishi uning shaxsiyatining qay jihatini ko‘rsatadi?*” tarzida qo‘yilgan ikkinchi savol esa metodik jihatdan to‘g‘ri. Birinchidan, “Mirzo Ulug‘bekning ruhiyatini tahlil qilish va uning kechinmalarini topish” adib tarafidan aytilgan bo‘lsa-da, matn asosida uni qayta tahlil qilish o‘quvchiga zavq beradi. Binobarin, savolni yuqoridagiday qo‘yish mantiqan to‘g‘ri emas. Zero, bu gapni ikkinchi sinf o‘quvchisi aytmagan va ayto olmaydi. Matnni o‘zlashtirish bo‘yicha esa, “*She‘rni ifodali o‘qing va yod oling*” tarzida topshiriq berilgan.

Ko‘rinadiki, bu savol va topshiriqlar o‘quvchilarni faollashtirmaydi, ularni matn ichiga olib kirolmaydi, asar mohiyatini anglata bilmaydi, binobarin, kichik maktab o‘quvchilarida muayyan ma’naviy-axloqiy sifatlar shakllanishiga xizmat qilmaydi.

Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekovlar tomonidan yaratilib, 2019 yilda “O‘qituvchi” nashriyotida bosilgan 9- sinf “Adabiyot” darsligida, bir tomondan, dasturga muvofiq kelmaydigan o‘rinlar borligi, ikkinchi tomondan esa o‘quvchilar o‘rganishlari kerak bo‘lgan asarlar hajmining ularni o‘rganishga ajratilgan vaqtga nisbatan haddan tashqari kam ekanligi ko‘zga tashlanadi⁷.

Agar dasturda “Ulug‘bek xazinasini” romanidan olingan kichik parchagina taqdim etilgan. Zotan, barkamol avlodni tarbiyalash uchun pedagoglardan yoshlarni o‘z ustlarida tinimsiz ishlaydigan, to‘xtovsiz izlanadigan, boshqacha aytganda, o‘zlarini o‘zlari o‘qitadigan holatga solish talab etiladi. Buning uchun ularning zimmasiga yetarlicha didaktik yuk orta bilish lozim bo‘ladi. Negaki, o‘qitish jarayonidagi yuzakilik ta’limda samarasizlikka olib keladi.

Odil Yoqubov nasri mazmun-mundarija jihatidan ham, ifodasidagi o‘ziga xoslik nuqtai nazaridan ham, obrazlarning zamiridagi ma’nolarni topish mushkulligiga ko‘ra ham nafaqat o‘quvchi, balki o‘qituvchilarnida jiddiy o‘ylashga majbur qiladigan asarlardir. Shuning uchun ham o‘quvchilarni bu asarlarning ichiga chuqurroq kirishga xizmat qiladigan savol-topshiriqlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, bu

⁷ Yo‘ldoshev Q. Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot (9- sinf uchun darslik). –T.: “Yangiyo‘l Poligraph service”, 2010. 207-224- betlar.

asarlarni tahlil qilish, yashirin ma'nolarini ochish, ularda adib ning tasvir mahorati nechog'lik namoyon bo'lganini anglash shunchalik oson bo'ladi.

To'g'ri, darslikdagi savol-topshiriqlar o'quvchilarni matn yuzasidan o'ylashga, izlanishga, asarning ayrim o'rinlarini qayta boshdan idrok etishga yo'naltiradigan qonseptual tarzda qo'yilgan. Chunonchi, "Ulug'bek xazinasi" she'ri tahlili yuzasidan berilgan *"Asar matnidan qarnoqiyning niyati yomon emasligini ko'rsatuvchi dalillarni topib, izohlang"* singari topshiriqlar o'quvchini matn ustida ishlashga undaydi. Lekin ularning sonini yanada ko'paytirish tahlilning chuqurlashishiga xizmat qilgan bo'lardi.

Xulosa

Umumta'lim maktablarining barcha bosqichlarida Odil Yoqubov ijodini o'rgatish masalasida muayyan kamchiliklar ko'zga tashlanadiki, bu nuqsonlar ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. O'quv dasturlari tuzish va darslik yaratish ishlari yanada takomillashtirilishi, amaliyotchi o'qituvchilarning faoliyat samaradorligini oshirish, ularni ta'lim jarayoni uchun zarur metodik ashyolar va qo'llanmalar bilan ta'minlash; metodik qo'llanmalardagi maqolalarning ilmiy saviyasini ko'tarish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zaripov K. Yangi pedagogik texnologiyani tatbiq etish bosqichlari.// Xalq ta'limi. 1997. №4. 4 -12 b.
2. Ziyodullaeva N.Sh. O'zbek adabiyotshunosligida ijodkor biografiyasini o'rganish muammolari. (A.Qahhor hayoti va ijodi asosida). Fil.fan.nom.diss... avtoref. -T.: 2000. – 26 b.
3. Zokirov I. Kasb-hunar maktablari o'qituvchilari o'rtasida yangi pedagogik texnologiyani targ'ib etish.// Uzluksiz ta'lim. -Toshkent, 2002. 5-son, Z-10-b.
4. Иванов В.: Тупе Л. и др. Педагогическая деятельность: проблемы, сложности. // Высшее образование в России. 1997. №4. 29-32 с.
5. Ионин Г.Н. Изучение литературного произведения в школе. – Ленинград.: «Наука», 1976.